

**SOLIQ TIZIMINING MUAMMOLARI VA ULARNI HAL QILISHNING
MUMKIN BO'LGAN ISTIQBOLLARI,
TIZIMDAGI SO'NGGI YILLARDAGI O'ZGARISHLAR.**

Turdialiyeva Otikaxon Umidjon qizi

Bozorboyeva Barnoxon Farxodjon qizi

Farg'ona Davlat universiteti Iqtisodiyot fakulteti

Moliya va moliyaviy texnologiyalar yo'nalishi

3-kurs talabasi.

Ilmiy rahbar: G'oziyev Murodjon Shokiraliyevich

Annotatsiya: Bugungi maqolada O'zbekistonda soliq islohotlari amalga oshirilishi, soliq tizimidagi o'zgarishlar va natijalar, soliq turlari, ularning miqdori, hamda jismoniy va yuridik shaxslarga tadbiiq etilishi haqida bilib olamiz.

Kalit so'zlar: soliq imtiyozlari, soliq konsepsiyasi, soliq tizimi, jismoniy va yuridik shaxslar, pensiya jamg'armasi, sug'urta badallar.

Abstract: In today's article, we will learn about the implementation of tax reforms in Uzbekistan, changes and results in the tax system, types of taxes, their amounts, and their application to individuals and legal entities.

Keywords: tax benefits, tax concept, tax system, individuals and legal entities, pension fund, insurance contributions.

Soliq tizimi davlatning moliyaviy bazasini shakllantiruvchi, iqtisodiy o'sishni rag'batlantiruvchi va ijtimoiy adolatni ta'minlovchi asosiy vositadir. Davlatlarning soliq siyosati soliq to'lovchilarning huquq va majburiyatlarini, shuningdek soliq organlarining vakolatlarini belgilaydi. O'zbekiston soliq tizimi so'nggi yillarda tubdan islohot qilinmoqda, bu jarayon qonunchilikning xalqaro standartlarga moslashtirilishi, raqamli texnologiyalarning joriy etilishi va soliq imtiyozlarining differensiallashtirilishi orqali amalga oshirilmoqda.

Barcha mamlakatlar iqtisodiyotini rivojlanishida soliqlar byudjet daromadlarining asosiy manbai hisoblanadi. Soliqlar davlat tomonidan belgilangan

majburiy to'lovlar bo'lib, yuridik va jismoniy shaxslardan undiriladi. Davlat umummilliy dasturlarini amalga oshirish davrida jamg'armalar tashkil etilishi mumkin bo'lib, ularga qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda majburiy to'lovlar belgilanadi. Hozirgi davrda respublikamizda quyidagi soliqlar –foyda solig'i, daromad solig'i, qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i, yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to'lovlar, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, mol-mulk solig'i, yer solig'i, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i, transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliqlar amal qilmoqda. Soliqlardan tashqari majburiy to'lovlar – ijtimoiy jamg'armalarga majburiy to'lovlar (yagona ijtimoiy to'lov, Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari va majburiy ajratmalar), Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy to'lovlar (majburiy ajratmalar va yig'img'lar), davlat boji, bojxona to'lovlari, ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlarni ko'rsatish huquqi uchun yig'img'lar ham amal qiladi. Jamiyat rivojlana boshlagan sari soliq tizimi ham rivojlanib, takomillashtirilib boriladi. Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida O'zbekistonning soliq siyosatining muhim strategik yo'nalishlari sifatida soliq yukini kamaytirish, soliqqa tortish tizimini soddalashtirish siyosatini davom ettirish soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish va tegishli rag'batlantiruvchi choralarni kengaytirish kabi muhim masalalar belgilab olingan bo'lib, bular iqtisodiyotni tezkor rivojlantirish hamda mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini yaxshilashning muhim shartlari sifatida belgilab olindi.

Hozirgi kunda respublikamizda mavjud yuridik shaxslarning faqatgina 3 foizi qo'shimcha qiymat solig'ini to'laydigan tadbirkorlar hisoblanadi. Bu, o'z navbatida, qo'shimcha qiymat solig'ining iqtisodiyotdagi ko'rsatkichi qisqartirilishiga, ishlab chiqaruvchidan tortib sotib oluvchigacha bo'lgan uzviylik yo'qolishiga olib kelayotgan edi. Chunki qolgan 97 fozi yuridik shaxslar, tadbirkorlar, biznes vakillari yagona soliq tizimiga o'tib ketgandi. Agar bunga iqtisodiy nuqtai nazardan qarasak, bu yalpi ichki

mahsulotning ham qisqargan holda ko'rsatilishiga va soliq to'lanadigan bazaning kamayishiga olib keladi.

2021-yil uchun soliq imtiyozlari summasi 42,1 trln so'mni, jumladan, Soliq kodeksiga muvofiq 33 trln so'mni (78,4%) tashkil etdi. Soliq imtiyozlarining umumiy hajmida QQS ulushiga 35,7 trln so'm, shu jumladan QQS bo'yicha nol darajali stavka (eksport, xalqaro tashishlar, qimmatbaho metallarni realizatsiya qilish) - 15,3 trln so'm to'g'ri keladi. Soliq kodeksiga muvofiq QQS bo'yicha imtiyozlarni tijorat banklari moliyaviy xizmatlar bo'yicha, sug'urta tashkilotlari - sug'urta xizmatlari bo'yicha qo'llaydi. 2021 yilda mazkur institutlarga berilgan imtiyozlar summasi 9,1 trln so'mni tashkil etdi. Quyidagilar taklif etilmoqda:

- tovarlarni (ishlarni) eksport qilishda taqdim etiladigan imtiyozlarni imtiyozlar ro'yxatidan chiqarib tashlash. Ya'ni, bu istisnalar saqlanib qoladi va imtiyozlar hisoblanmaydi;

- qonuniylashtirish - imtiyozlar hukumat qarorlari bilan faqat foyda solig'i va bojxona boji bo'yicha va faqat tegishli stavkalarni kamaytirish bo'yicha berilishi mumkin.

O'zbekiston Iqtisodiyot va Moliya vazirligi o'zining budjetnomasida 2024–2026-yillarga mo'ljallangan soliq va bojxona siyosatining asosiy yo'nalishlarini taqdim qildi.

2024-yil uchun daromad solig'i (15 foiz, ayrim toifalar uchun — 20 foiz), jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i (12 foiz), ijtimoiy soliq (budjet tashkilotlari — 25 foiz, boshqalar — 12 foiz), aylanmadan olinadigan soliq stavkalari (4 foiz), shuningdek, avtotransport vositalarining O'zbekiston hududiga kirganligi va uning hududi orqali tranziti uchun yig'imlar stavkalarining miqdorlari va alkohol mahsulotlarini realizatsiya qilish huquqi uchun yig'imlar saqlanib qolinadi. Bundan tashqari, QQS (12%), mobil aloqa xizmatlari uchun aksiz solig'i (10%), qishloq xo'jaligi yerlari uchun yer solig'i (0,95%), yuridik shaxslarning mol-mulk solig'i (1,5%) stavkalari ham o'zgarmaydi.

2024-yildan boshlab mol-mulk solig'i stavkalari va jismoniy shaxslar uchun yer solig'ining bazaviy stavkalari o'rtacha 12 foizga oshiriladi. 2018-yilda, keyingi yilda belgilangan kadastr qiymatidan kelib chiqqan holda hisoblangan soliq summasi 2023-yil uchun hisoblangan soliq summasidan 1,3 baravardan ortiq bo'lishi mumkin emas.

Kelgusi yildan boshlab jismoniy shaxslarning mol-mulk solig'ini hisoblashda soliq solinadigan bazani belgilashda noturarjoy mulklari ham hisobga olinadi va yuridik shaxslarning mol-mulkiga soliqni hisoblashda eng kam miqdordan foydalangan holda soliq solish tartibi joriy etiladi. 2025-yilning 1-yanvaridan 2028-yilning 1-yanvarigacha ayrim ijtimoiy shartlarni bajaruvchi tikuv, poyabzal va charm-attorlik sanoati korxonalari uchun foyda solig'i va o'zlarining xodimlari uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i stavkalari 1 foiz etib belgilandi.

Birinchi navbatda gap soliqqa tortishning soddalashtirilgan va umumiy tartibi orasidagi juda katta farq haqida ketmoqda (ya'ni kichik va yirik korxonalar orasida). Bir tartibdan ikkinchisiga o'tganda soliq yuki bir necha marta oshib ketishi mumkin. Bu esa biznesning o'sishiga to'sqinlik qiladi va milliy ishlab chiqaruvchilarning raqobatbardoshligini oshirish imkoniyatini keskin pasaytiradi.

Shundan kelib chiqqan holda, soliq yukini keskin qisqartirish va soliqqa tortishning umumiy tartibidagi qoidalarni soddalashtirish nazarda tutildi, jumladan:

- mehnatga haq to'lash fondi soliqlari qisqartirildi (yuqoriga qarang);
- umumiy tartibdagi korxonalar uchun davlatning maqsadli jamg'armalariga majburiy ajratmalar bekor qilindi (tushumdan 3,2%);
- yuridik shaxslarning foyda solig'i miqdori 14% dan 12% ga pasaytirildi (tijorat banklari uchun – 22% dan 20% ga, uyali aloqa kompaniyalari uchun 14% dan 20% ga oshdi va rentabellikning ma'lum darajasidan o'tganda to'lanadigan soliq bekor qilindi, sement va polietilen granula ishlab chiqaruvchilar uchun 14% dan 20% ga oshirildi);
- dividend solig'i 10% dan 5% ga pasaytirildi;

- yuridik shaxslarning mulk solig'i stavkasi 5% dan 2% ga pasaydi, shuningdek, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning barcha yuridik shaxslar tomonidan to'lanishi shartligi joriy qilindi;

Soliqqa tortishning yangi tizimiga o'tishdagi biz duch kelayotgan ko'plab muammolar aynan QQS stavkasini pasaytirishni istamaslik bilan bog'liq. Umid qilamizki, bu qaror soliq islohotlari ildiziga bolta urmaydi.

QQS stavkasini pasaytirish o'rniga soddalashtirilgan QQS tizimi joriy qilinmoqda. Menimcha, bu soliq islohotini amalga oshirish jarayonini sekinlashtiradi va qiyinlashtiradi, chunki, bu soliqni to'lashda to'laqonli hisobga olishni amalga oshirish imkoniyatini bermaydi. Soddalashtirilgan QQS tizimiga o'tish imkoniyati yillik aylanmasi 3 milliardgacha bo'lgan korxonalar uchun mavjud va bu rejimda 2021-yil 1-yanvargacha bo'lish mumkin.

Bu tartibning asosiy xususiyati soliq stavkasini pastligi, shuningdek, xarid qilingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo'yicha QQS summasini hisobga olish imkoniyatining yo'qligidir. Bunda to'langan QQS mahsulotni sotib oluvchi standart QQS to'lovchi tomonidan hisobga olinishi mumkin.

Afsuski, prezidentning iyun oyidagi qarorida ko'rsatilgan ba'zi vazifalarni bajarish qaysidir ma'noda barbod qilingan.

1. Soliq kodeksining yangi talqini ishlab chiqilmagan. Vaholanki, buni amalga oshirish uchun yarim yil vaqt bor edi. Dekabr oyida kodeksga kiritilayotgan o'zgarishlar yangi soliq tizimini joriy qilishdagi ko'plab muammolarni hal qilmaydi. Bu islohotlarga berilgan katta zarba.

2. O'zi ishlab chiqargan qishloq xo'jaligi mahsulotlariga taalluqli QQS bilan bog'liq muammo hal qilinmagan. Muammoning mohiyati shundaki, agrar korxonalar QQS to'lamaydi, natijada, ularning mahsulotini xarid qiluvchi va qayta ishlovchi umumiy ovqatlanish va savdo korxonalari qo'shilgan qiymatni yaratuvchi zanjirning ishtirokchisi sifatida uni hisobga ololmaydi. Natijada, bu korxonalarning soliq yuki ortadi. O'z navbatida, bu muammoni hal qilish uchun yaxshi variantlar bor edi, ammo, ular e'tiborga olinmadi.

Xulosa qilib aytganda, mustaqillik yillarida iqtisodiyotning boshqaruv tizimi tubdan o'zgartirildi, xo'jalik yuritishning bozor iqtisodiyotiga mos yangi tizimi yaratildi. Bozor infratuzilmasi asoslari barpo qilindi. Mamlakatimiz iqtisodiy tanazzul davridan o'tib oldi, makroiqtisodiy va moliyaviy barqarorlikka erishildi, iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi zarur shart-sharoitlar vujudga keldi. Xususiy mulkchilikning huquqiy asoslari yaratildi. Davlat mulkini xususiylashtirish natijasida ko'p ukkladli iqtisodiyot shakllandi. Eng muhimi, odamlarimizning tafakkuri, hayotga bo'lgan munosabati tubdan o'zgarmoqda. Turmush darajasi, oilasining farovonligi o'ziga bog'liq ekanligini tushunib yetayotgan odamlar tobora ko'payib bormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Lex.uz sayti
2. 30.12.2019 O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi.
3. <https://renessans-edu.uz>
4. <https://www.norma.uz>